

ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES

Open Access, Peer Reviewed Journal

Scientific Journal



- Medicine
- Pharmaceuticals
- Biology
- Chemistry
- Geology
- Agriculture



+998 33 5668868

www.innoworld.net



**INNOVATIVE
WORLD**

**ORIENTAL JOURNAL OF
MEDICINE AND NATURAL SCIENCES**

**Volume 2, Issue 3
2025**

Journal has been listed in different indexings



The official website of the journal:

www.innoworld.net

Andijon-2025



Gelmintoz kasalliklari – odam askaridasi epidemiologiyasi, profilaktikasi va zamonaviy davolash va oldini olish strategiyalari

Egamberdiyev Sardor Olimjon o'g'li
Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti
Tibbiy profilaktika va Jamoat Salomatligi fakulteti
Tibbiy profilaktika ishi yo'nalishi talabasi.

ANNOTATSIYA

Gelmintoz kasalliklari global sog'liqni saqlash tizimida dolzarb muammo bo'lib, turli yosh guruhlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada odam askaridasi epidemiologiyasi, ularning tarqalish omillari va inson organizmiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, odam askaridasini oldini olishga qaratilgan zamonaviy profilaktika strategiyalari, jumladan, gigiyena choralari, skrining dasturlari va innovatsion davolash usullari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari gelmintozlarning kamaytirish va ularning sog'liq uchun xavfini minimallashtirish bo'yicha samarali yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so'zlari: Gelmintoz, odam askaridasi, epidemiologiya, profilaktika, antiparazitar terapiya, zamonaviy oldini olish, sanitariya-gigiyena, skrining dasturlari, parazitar kasalliklar, sog'liqni saqlash.

Kirish. Gelmintozlar (yun. Helmins, helminthos-gijja, qurt) – odam, hayvon va o'simliklarda parazit qiluvchi chuvalchanglar qo'zg'atadigan kasalliklar. Gelmintozlar — inson organizmida parazitlik qiluvchi chuvalchanglar tomonidan yuzaga keltiriladigan kasalliklar bo'lib, global sog'liqni saqlash tizimida muhim muammo hisoblanadi. Hozirgi vaqtda gelmintlarning 400 ga yaqin turi ma'lum bo'lib, ular insonning turli organ va to'qimalarida parazitlik qiladi. Gelmintozlarning keng tarqalishi sanitariya-gigiyena sharoitlarining yetarli emasligi, ifloslangan suv va oziq-ovqat mahsulotlarining iste'moli, shuningdek, profilaktik choralarning yetarli darajada qo'llanilmasligi bilan bog'liq. Parazitlarning tuxumlari va lichinkalari inson organizmiga og'iz orqali yoki teri orqali tushishi mumkin, bu esa kasallikning yuqish mexanizmlarini murakkablashtiradi.

Dolzarblig. Gelmintoz kasalliklari — inson va hayvonlarda parazitlar chuvalchanglar (gelmintlar) tomonidan qo'zg'atiladigan kasalliklar bo'lib, global sog'liqni saqlash tizimida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda inson organizmida parazitlik qiluvchi 150 dan ortiq gijja turlari aniqlangan. Ushbu kasalliklarning keng tarqalishi va ulardan kelib chiqadigan salbiy oqibatlar mavzuning dolzarbligini oshiradi. Gelmintozlarning klinik ko'rinishlari turlicha bo'lib, ular parazitning turiga, joylashish joyiga va organizmning individual xususiyatlariga bog'liq. Eng

ko'p uchraydigan simptomlar qatoriga umumiy holsizlik, ishtahaning o'zgarishi, qorin sohasidagi og'riqlar, dispeptik buzilishlar va allergik reaksiyalar kiradi. Parazitlarning uzoq muddatli mavjudligi organizmning immun tizimini zaiflashtirishi, surunkali kasalliklarning rivojlanishiga turtki bo'lishi va bolalar hamda homilador ayollar uchun jiddiy asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Gelmintozlarning oldini olish va tarqalishini cheklash uchun samarali profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Bunga sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, oziq-ovqat mahsulotlarini to'g'ri qayta ishlash, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va muntazam skrining dasturlarini amalga oshirish kiradi. Shuningdek, zamonaviy antiparazitar vositalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali gelmintozlarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish mumkin.

Ushbu maqolada gelmintoz kasalliklari ya'ni odam askaridasi epidemiologiyasi, profilaktikasi va zamonaviy oldini olish strategiyalari tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi — gelmintozlarning tarqalishi, xavf omillari va ularning inson salomatligiga ta'sirini chuqur o'rganish hamda samarali profilaktika choralari va innovatsion yondashuvlarni aniqlash orqali ushbu muammoga qarshi kurashishda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tahlil va natijalar. Gelmintoz kasalliklari butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori uchraydi. O'zbekiston sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, bolalar orasida parazitlar kasalliklarning 99% ini protozoonoz va gelmintlar tashkil etishi aniqlangan. Bu esa, ayniqsa, bolalar salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Ulardan biri misolida Odam askaridasi (*Ascaris lumbricoides*)ni ko'rishimiz mumkin. U insonning ingichka ichagida parazitlik qiluvchi yirik yumaloq chuvalchang bo'lib, dunyo miqyosida keng tarqalgan gelmintozlardan biridir. Askaridoz asosan sanitariya-gigiyena sharoitlari yetarli darajada emasligi sababli rivojlanadi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu kasallik muhim sog'liq muammolaridan biri hisoblanadi.

Etiologiyasi. Odam Askaridasi (*Ascaris lumbricoides*) — To'garak chuvalchanglar oilasiga mansub parazitlar hisoblanadi. Ular umurtqali hayvonlar va odam ichagida parazitlik qiluvchi 9 ta urug'ni o'z ichiga oladi. Odatda odam askaridasi (*A. Lumbricoides*) va cho'chqa askaridasi (*Ascaris suurn*) ko'p uchraydi. Odam askaridasi erkagining uzunligi 15 — 25 sm, urg'ochisi 20 — 40 sm. Erkak askaridaning dumi ilmoqqa o'xshash egilgan. Askarida gavdasi tashqi tomondan pishiq va qalin po'st — kutikula bilan qoplangan. Yopishuv organlari (so'rg'ichlar) rivojlanmagan, uning elastik tanasi ichak devoriga taqalib turganidan ichakdan tashqariga chiqib ketmaydi. Voyaga yetgan urg'ochi askaridalar inson ichagida kuniga 200 mingdan ortiq tuxum qo'yadi. Ushbu tuxumlar axlat orqali tashqi muhitga chiqadi. Tuxumlar tuproq yoki suvga tushgach bir necha hafta davomida yetiladi va invazion (yuqumli) holatga keladi. Yetilgan tuxumlar ifloslangan suv, yuvilmagan meva va sabzavotlar orqali inson og'iz bo'shlig'iga va undan

ichakka tushadi. Ichakka tushgan tuxumlar lichinkalarga aylanadi. Lichinkalar ichak devori orqali qon tomirlariga o'tib, jigarga, yurakka va o'pkaga yetib boradi. O'pkada ular alveolalar orqali bronx va traxeyaga ko'chadi, yo'tal paytida og'iz bo'shlig'iga chiqadi va qayta yutilib, yana ichakka tushadi. Bu jarayon taxminan 2–2,5 oy davom etadi. Ichakka qayta tushgan lichinkalar voyaga yetgan askaridalarga aylanadi. Voyaga yetgan askaridalar inson ichagida ovqat hazm bo'layotgan moddalar bilan oziqlanadi, bu esa organizmga toksik ta'sir ko'rsatib, oziq moddalarni o'zlashtirish jarayonini buzadi. Olimlarning fikriga ko'ra, yer aholisining taxminan 25% bu parazitlar bilan kasallangan.

Klinikasi. Odatda askaridalar shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik tufayli tanaga kiradi: yuvilmagan meva va sabzavotlarni iste'mol qilish, ifloslangan tuproq bilan aloqada bo'lish. Parazit tuxumlari tanaga kirgach, askaridozning birinchi bosqichi boshlanadi (migratsiya). Ushbu bosqich uch haftagacha davom etadi. Ingichka ichakda lichinkalar tuxumni tark etadi, qon oqimiga kiradi va tana bo'ylab tarqaladi. Rivojlanish jarayonida ular doimo glyukoza, oqsillar va vitaminlarni qondan oladi, bu esa tashuvchining holatiga ta'sir qiladi.

Kasallikning ushbu bosqichida bemorlarda odatda quyidagi alomatlar paydo bo'ladi:

- oshqozonda og'riq;
- xolsizlik;
- teri qichishi;
- jigar kengayishi;
- teri toshmalari;
- ko'ngil aynishi.

Askarida lichinkalari nafas olish yo'llari bo'ylab harakat qilganda, nafas olish bilan bog'liq muammolar nafas qisilishi, nafas olish va nafas chiqarish paytida hushtak yo'tal kabi belgilar paydo bo'lishi mumkin.

Askaridozning lichinkalariri ichakka tushgach (ichak bosqichi) quyidagi alomatlar kuzatilishi mumkin:

- diareya;
- ko'ngil aynishi;
- bosh og'rig'i;
- ishtaha buzilishi;
- ichakdagi dam ko'payishi;
- tez-tez charchash;
- qorin shishi;
- uyqu bilan bog'liq muammolar;
- kindik sohasidagi og'riq;
- bosh aylanishi kabi belgilar kuzatiladi.

Tashxislash. Askaridoz tashxisini aniq qo'yishda birinchi fazasida balg'am tarkibida lichinkalarni aniqlash va qonda specifik antitanalarni aniqlashga imkon beruvchi immunologik reaksiyalarni qo'yishdir. Odam

askaridasi kasalligining ichak bosqichida asosiy usul askarida tuxumlari uchun najasni o'rganishdir. Agar tuxum o'n ikki barmoqli ichak suyuqligida aniqlansa, bu o't va oshqozon osti bezi yo'llarida parazitlar mavjudligini ko'rsatishi mumkin. Ammo, bazida ichakda bir jinsga mansub parazitlar mavjud bolsa, ularni rentgenologik usulda aniqlash mumkin.

Davolash. Odam askaridasi bilan zararlanish dunyo bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa, gigiyena darajasi past bo'lgan hududlarda uchraydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining taxminan 1,2 milliard nafari askaridoz bilan zararlangan. Kasallik ko'proq bolalar orasida kuzatiladi va oqibatda organizmning oziqlanish yetishmovchiligi, ichak tutilishi hamda immunitet zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

1. Farmakologik davolash

Odam askaridasini davolashda antiparazitar dorilar asosiy o'rinni egallaydi. Quyidagi dorilar samarali hisoblanadi:

- **Albendazol** (400 mg, bir martalik qabul qilinadi)
- **Mebendazol** (100 mg kuniga 2 marta, 3 kun davomida)
- **Pirantel pamoat** (10 mg/kg dozada, bir martalik qabul qilinadi)
- **Ivermektin** (200 mcg/kg dozada, bir martalik qabul qilinadi, lekin homilador va emizikli ayollar uchun tavsiya etilmaydi)

JSST tavsiyalariga ko'ra, ushbu dorilar ommaviy deworming dasturlarida keng qo'llaniladi, ayniqsa, maktab yoshidagi bolalar orasida kasallikning oldini olish maqsadida.

2. Qo'shimcha simptomatik davolash

Ba'zan askaridozning og'ir holatlarida dori bilan davolash yetarli bo'lmasligi mumkin va qo'shimcha simptomatik terapiya talab etiladi:

- **Ichak tutilishi yoki ichak devorining shikastlanishida** – jarrohlik aralashuvi talab qilinishi mumkin.
- **Allergik reaksiyalarni kamaytirish** – antigistamin dorilar (loratadin, cetirizine) buyuriladi.
- **Ichak florasini tiklash** – probiotiklar (bifidobakteriyalar va laktobakteriyalar) qabul qilinadi.

3. Zamonaviy va innovatsion davolash usullari

So'nggi tadqiqotlar asosida quyidagi yangi davolash yondashuvlari ishlab chiqilmoqda:

- **Nanotexnologik antiparazitar dorilar** – gelmintlarga qarshi nanozarrachalar asosida ishlab chiqilgan dorilar tajriba sinovlaridan o'tmoqda.
- **Gelmintlarga qarshi vaksinalar** – hali to'liq ishlab chiqilmagan, ammo klinik sinovlar davom etmoqda.
- **Genetik tadqiqotlar asosida aniq mo'ljallangan terapiya** – individual xususiyatlarga mos keladigan antiparazitar dorilar ishlab chiqilmoqda.

Profilaktikasi. Odam askaridasi keltirib chiqaruvchi kasallikni oldini olish uchun shaxsiy gigiena qoidalariga qat'iy rioya qilish kerak. Ovqatlanishdan oldin va hojatxonadan keyin qo'llarni sovun bilan yaxshilab yuvish. Bu, parazit tuxumlarining og'iz orqali organizmga tushishini oldini oladi. Yangi uzilgan meva va sabzavotlarni yaxshilab yuvish yoki qaynatish orqali ularning yuzasidagi mumkin bo'lgan parazit tuxumlarini yo'q qilish. Faqat qaynatilgan yoki ishonchli manbalardan olingan suvni ichish. Bu, suv orqali yuqadigan infeksiyalarning oldini olishga yordam beradi. Tuproq bilan bevosita aloqada bo'lganda, masalan, bog'dorchilik yoki dala ishlarida, qo'lqop kiyish va ish tugagach, qo'llarni yaxshilab yuvish. Bu, tuproq orqali yuqadigan tuxumlarning oldini oladi. Axlatni to'g'ri utilizatsiya qilish, kanalizatsiya tizimlarini yaxshilash va inson chiqindilarining tuproq yoki suv manbalariga tushishini oldini olish orqali parazitlarning tarqalishini kamaytirish. Bolalarga qo'llarni yuvish, tuproq yoki qumni og'izga solmaslik kabi gigiyena odatlarini o'rgatish orqali ularning infeksiya xavfini kamaytirish mumkin. Ushbu profilaktik choralarga rioya qilish orqali askaridoz kasalligining oldini olish va sog'lom turmush tarzini ta'minlash mumkin.

Prognozi. Odam askaridasi (*Ascaris lumbricoides*) keltirib chiqaradigan askaridoz kasalligining prognozi odatda yaxshi, Ko'pchilik hollarda askaridoz simptomtsiz yoki engil shaklda kechadi. Agar kasallik o'z vaqtida aniqlanib, antiparazitar dorilar bilan davolansa, bemor tez va to'liq sog'ayishi mumkin. Ammo ba'zi hollarda juda ko'p askaridalar to'planishi ichak tutilishiga olib kelishi mumkin, bu esa jarrohlik aralashuvini talab qilishi mumkin. Bolalar va immuniteti zaif odamlarda ovqat hazm qilish buzilishi, vitamin yetishmovchiligi va o'sish sustlashuvi kuzatilishi mumkin. Agar askaridalar nafas yo'llariga tushsa, o'pka asoratlari (askarid pnevmoniyasi) rivojlanishi mumkin.

Xulosa. Askaridoz — dunyo bo'ylab keng tarqalgan parazitlar kasallik bo'lib, u asosan gigiyena qoidalariga rioya qilinmagan hududlarda uchraydi. Ushbu kasallikning rivojlanishi odam organizmiga *Ascaris lumbricoides* tuxumlari tushishi bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa, sanitariya sharoitlari yomon bo'lgan hududlarda keng tarqaladi. Parazit inson ichagida rivojlanib, turli asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin, shu jumladan ichak tutilishi, o't yo'llarining obstruksiyasi, o'pka zararlanishi va hatto o'lim bilan yakunlanadigan og'ir holatlar. Xulosa qilib aytganda, askaridozning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish jamiyatdagi har bir insonning gigiyena madaniyatini oshirish, sanitariya sharoitlarini yaxshilash va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishga bog'liq. Agar profilaktika tadbirlari keng ko'lamda amalga oshirilsa, ushbu kasallik butunlay yo'q bo'lib ketishi mumkin. Shu boisdan, har bir inson askaridozdan himoyalaniish uchun gigiyenik normalarga qat'iy rioya qilishi va o'z sog'lig'iga e'tibor berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) *Mikrobiologiya Immunologiya Virusalogiya. Muhamedov I.*
- 2) *Mikrobiologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari qo'llanmasi. Aliyev R. Sh.*
- 3) Zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda parazitlar infektsiyalarning laboratoriya diagnostikasi // zamonaviy fanning yutuqlari. Sizhazheva A. M.
- 4) Tibbiy parazitologiya asoslari, odam nematodozlari va trematodozlari. Nazarova F. SH.
- 5) <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Askarida>



INNOVATIVE
WORLD